



DAVLAT BOSHQARUVINING KONSEPTUAL ASOSLARI VA UNING DAVLAT SIYOSATIDA TUTGAN ROLI

Mardanov Sardorbek Zafar o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Ijtimoiy Fanlar fakulteti Siyosatshunoslik yo'nalishi

Siyosat – 22/A1 guruhi 4-kurs talabasi

O'zbekiston Respublikasi. Toshkent sh.

Email: davronovz73@gmail.com

Orcid ID: 0009-0001-5305-5860

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17812068>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-noyabr 2025 yil

Ma'qullandi: 28- noyabr 2025 yil

Nashr qilindi: 30- noyabr 2025 yil

KEYWORDS

Davlat boshqaruvi, davlat xizmati, davlat siyosati, davlat, jamiyat, boshqaruv, davlat boshqaruvi konsepsiyalari, siyosatshunoslik

ABSTRACT

Mazkur maqolada davlat boshqaruvining nazariy va konseptual asoslari hamda uning davlat siyosatidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Muallif tomonidan davlat boshqaruvidagi paradigmalar asoslar borasida so'nggi ilmiy tatqiqot ishlari keltirib o'tiladi. Davlat boshqaruvi sohasining dinamik jarayon sifatidagi taraqqiyoti ushbu maqolada bir qator ilmiy ma'lumotlar bilan belgilanadi. Bu borada tatqiqotchilarning ilmiy ishlari izchilligi va dolzarbligini ta'minlash mazkur ilmiy ishning obyektini tashkil etadi. Mazkur maqolada davlat boshqaruvi texnologiyalari va usullarining davriy hamda kontekstual jarayonlari va hodisalar haqida ma'lumotlar tahlili amalga oshiriladi.

Zamonaviy davlat boshqaruvi munosabatlari va texnologiyalari ko'pgina boshqaruv tuzilmasiga ega bo'lgan davlatlarning siyosatida muhim ahamiyatga egadir. Davlat siyosati ko'pgina davlatlarda davlat xizmatlari va ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy munosabatlar shaklida qaror topadi. Biroq, har qanday siyosiy xatti-harakat yoki texnologiya o'zining paradigmalari bilan doimiy aloqada bo'ladi. Davlat boshqaruvining zamonaviylashuvi va modernizatsiyasi davlat xizmatida ham, davlat siyosatida ham qadriyatini va an'anaviy shakllarni o'zida saqlab qoladi. Bu esa, hozirgi vaqtda davlat boshqaruvining mustahkam konseptual asoslarini va ularning davlat siyosatidagi ahamiyatini ifodalaydi. Mazkur jarayon dinamik tarzda davriylik va fundamental ko'rinishga egadir.

Amerikalik tatqiqotchilar o'z ilmiy ishlarida davlat boshqaruvini alohida tushunchalarga bo'lib tasniflash, mazkur murakkab fenomenning ko'p qirrali modelini yaratishini ta'kidlaydilar. Unga ko'ra, quyida mazkur tushunchalar izohi beriladi:

Davlat – mustaqil va o'z xohishini majburlay olish kuchiga ega boshqaruv tuzilmasidir. Davlat bu – millatning boshqaruv tuzilmasidir. Davlat asosiy siyosiy institut¹. Davlat jamiyatning markaziy va integratsion siyosiy institutidir. U ijtimoiy jarayonlarni jamiyat maqsadlari asosida muvofiqlashtirish va boshqarish qobiyatiga ega bo'lgan, shuningdek, oliy

¹ Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013. – P.58-96.

hokimiyat vakolatlarini bir joyga to'playdigan, ularni amalga oshiradigan institutdir². Yuqorida keltirilgan ikki manbadagi izohlarning birida tuzilma va institut sifatida, ikkinchisida esa, faqat institut sifatida talqin etilmoqda.

Boshqaruv – ushbu tushuncha tor ma'noda biror-bir tashkilot maqsadini aniqlash va unga erishish uchun zarur bo'lgan rejalashtirish, tashkil etish va nazorat jarayonlarining foyda keltirishi, samara berishi, faoliyat yo'nalishlarini to'g'ri tanlay bilish, qarorlar qabul qilishga hamda uning boshqarilishini nazorat qilishga va jarayon dinamikasiga bog'liqdir³. Bu atamada ko'proq boshqaruv “Utilitar” va “Ratsional tanlov” nazariyalari asosida bayon qilingan.

Davlat boshqaruvi – bu boshqaruv mexanizmini yorituvchi va undan foydalanishga imkon beruvchi soha. Davlat boshqaruvi davlat dasturlari va siyosatlarini boshqarish, ularning jamiyat manfaati yo'lida samarali bajarilishini ta'minlash san'ati va fanidir⁴. Davlat boshqaruvi – bu birinchi navbatda, davlatning ichki va tashqi ishlarini muvofiqlashtiruvchi, jamiyatning barcha sohalarida barqarorlikni ta'minlash, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy manfaatlarni ilgari surish jarayonidir⁵. Davlat boshqaruvi – bu siyosiy hokimiyatni amalga oshirish, ijro va nazorat funksiyalarini bajarish orqali jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni barqaror ushlab turish hamda fuqarolar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan keng ko'lamli faoliyatdir⁶. Yuqoridagi uch ilmiy manbalarda davlat boshqaruviga nisbatan, soha sifatida, jarayon sifatida va faoliyat sifatida yondashilmoqda. Bu tushunchaning mohiyatiga ko'ra muayyan dinamik jarayondagi soha sifatida ifodalash mumkin va bu murakkab hodisani yaratadi.

Davlat siyosati – bu ijtimoiy va iqtisodiy maqsadlarga erishish uchun hukumatlar amalga oshiradigan qonunlar, qoidalar va harakatlar asosidir. Bu hukumatning muayyan muammo yoki muammoni hal qilish maqsadi haqidagi bayonotidir. Davlat siyosati davlat tashkilotlari va organlarining qarorlarini shakllantiradi va u jamiyat, iqtisodiyot va siyosatga ta'sir qiladi⁷. Davlat boshqaruvining progressiv dinamikasi uning davlat siyosatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili.

Davlat boshqaruvining nazariy va fundamental asoslari davriylik hamda paradigmalar nuqtai nazaridan tubdan farqlanadi. Bu esa, mazkur kontekstual jarayonda davlat siyosatining qanday amalga oshirilganligini ko'rsatadi. Xususan, qadimgi, o'rta, yangi va eng yangi davrlarda davlat boshqaruvi borasida bir qator olimlar, faylasuflar, ilmiy tatqiqotchilar hamda mazkur sohaning negizida ilmiy faoliyat olib borayotgan tuzilmalar tomonidan davlat boshqaruvi, uning asosida shakllangan davlat siyosati yoki davlat boshqaruvining davlat siyosatiga ta'siri haqida tadqiq etib kelinmoqdadir.

² Қирғизбоев, Муқимжон. Сиёсатшунослик: олий ўқув юртлари талабалари учун дарслик / М.Қирғизбоев; Ўзбекистон журналистика ва оммавий коммуникациялар университети. - Тошкент: “Шарқ”, 2024. - 146 б.

³ Rahmanov Abdulvoris Qutfiddin O'g'li BOSHQARUV NAZARIYASINING IJTIMOYNAZARIY ASOSLARI // EJTI. 2024. №1-3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/boshqaruv-nazariyasining-ijtimoiynazariy-asoslari> (дата обращения: 31.10.2025).

⁴ What is Public Administration? <https://www.spia.pitt.edu/insider-insights/what-public-administration>

⁵ F.Qarshiboyev, Ikromov Musojon DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARI VA XIZMATCHILARI // YOPA. 2025. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/davlat-boshqaruv-organlari-va-xizmatchilari> (дата обращения: 31.10.2025).

⁶ Djurayev N. DAVLAT BOSHQARUVI TUSHUNCHASI, UNING IJTIMOY-SIYOSIY MOHIYATI // Академические исследования в современной науке. – 2024. – Т. 3. – №. 52. – С. 72-80.

⁷ What is public policy? Definition, scope, features, types & more. <https://jgu.edu.in/blog/2023/12/30/what-is-public-policy/>

Pittsburg universiteti professori B.Guy Peters va Jon Pierralarning “Boshqaruv, siyosat va davlat” asarida “Davlat boshqaruvi endi milliy, submilliy va global darajadagi siyosiy dominant paradigмага aylandi. Davlatning siyosati unga yordam beruvchi siyosiy aktorlarning harakatiga va boshqaruvga ta’sir qiluvchi turli vositalarga bog’liqdir.” deya ta’kidlanadi. Ushbu asarda davlat boshqaruvi, xususan, boshqaruvning turli usullari, davlatning boshqaruvdagi roli, jamiyatdagi roli hamda uning nazariy va konseptual asoslari, davlat boshqaruvining transformatsiyasi hamda davlat boshqaruvi “kecha-bugun-keajakda” dilemasi yoritib beriladi⁸. Amerikalik olim Devid Jon Farmerning “Istiqbolda davlat boshqaruvi” asari tarixiylik va kontekstual sifatlarga ega hisoblanib, davlat boshqaruviga nisbatan an’anaviylik nuqtai nazaridan, iqtisodiy, siyosiy, tanqidiy, post tuzilmaviy, psixoanalitik, neyrologik, feministik, axloqiylik, va ma’lumotlar tahlili nuqtai nazaridan yoritib beradi va uning kelajakdagi harakat dinamikasida tutgan amaldagi holatlari haqida ma’lumotlar beriladi⁹. Buyuk Britaniyaning Sautgempton universiteti “Siyosat va xalqaro munosabatlar” bo’yicha mutaxassis Rod AW Rodosning “Boshqaruvni tushunish: siyosiy tarmoqlari, boshqaruv, refleksivlik va javobgarlik” asarida Buyuk Britaniya davlatining boshqaruvi ya’ni hukumatning hozirgi postmodern zamonda tutgan roli va uning tuzilmalari haqida va davlat boshqaruvini tushunishda o’zgarishlarning ahamiyatini atroflicha yoritib o’tadi¹⁰. Kanadalik olimlar Maykl Xoullett, Maykl Ramesh, Entoni Perllarning “Davlat siyosatini o’rganish: siyosat sikllari va siyosatning quyi tizimlari” asarida siyosat va davlat siyosatining dolzarb ekanligi hamda davlat siyosatini ishlab chiqish va davlat siyosati natijalariga ta’sir ko’rsatish o’zaro bog’liqligi borasidagi siyosiy tahlil modellari ko’rsatib o’tiladi. Asar tizimli tahlilga bog’liq hisoblanib, unda davlat siyosatining nazariy va konseptual asoslari ham keltirib o’tiladi. Davlat siyosatiga ta’sir qiluvchi siyosat subyektlari haqida ham ma’lumotlar berib boriladi¹¹. Buyuk Britaniyalik olim Gerri Stokerning “Boshqaruv nazariyasi sifatida: beshta taklif” asarida muallif “Anglo-Amerika” siyosiy nazariyasi orqali davlatni qonuniylashtirish va uning boshqaruv huquqini asoslash uchun “Hukumat” tuzilmasidan foydalanishini ta’kidlaydi. Hukumat o’zining qaror qabul qilish va ta’sir funksiyalari orqali siyosatdagi institutsional maqomini ko’rsatadi va bu orqali davlat boshqaruvi va davlat siyosatining metodologiyasini ochib beradi¹². Amerikalik olimlar Jey M. Shafritz, EW Russel, Kristofer P. Borik, Albert C. Hyde tomonidan “Davlat boshqaruviga kirish” asari 14 ta bobdan iborat shaklda, har bir bob davlat boshqaruvi, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy tizim, davlat siyosati hamda bularning mexanizmlari keltirib o’tiladi¹³. Yana bir amerikalik olimlar X.Jorj Frederikson, Kevin B. Smit, Kristofor Larimer, Maykl J. Likarining “Davlat boshqaruvi nazariyasi asoslari” asarida mazkur sohani fan sifatida ta’riflanishi, tavsiflanishi va elementlarini o’rganadilar. Mualliflarning keng doiradagi nazariyalari va tahliliy yondashuvlarini – davlatning institutsional nazariyasidan tortib, boshqaruv nazariyasigacha

⁸ Pierre J., Peters B. G. Governance, politics and the state. – Bloomsbury Publishing, 2020.

⁹ Farmer D. J. Public administration in perspective: Theory and practice through multiple lenses. – Routledge, 2015.

¹⁰ Rhodes R. A. W. Understanding governance: Policy networks, governance, reflexivity and accountability. – Open University, 1997.

¹¹ Howlett M. et al. Studying public policy: Policy cycles and policy subsystems. – Oxford : Oxford university press, 2009. – T. 3.

¹² Stoker G. Governance as theory: five propositions //International social science journal. – 1998. – T. 50. – №. 155. – C. 17-28.

¹³ Shafritz J. M. et al. Introducing public administration. – Routledge, 2022.

tatqiq qiladi va qaysi soha uchun eng istiqbolli, ta'sirli va muhim ekanligini ko'rsatib beradilar¹⁴. Davlat siyosati borasida AQSHning Jorj Vashington universiteti professorlari Donald P Moynihan va Sanjay K Pandeylarning "Davlat xizmatlarini rag'batlantirishda tashkilotlarning roli" asarida davlat xizmatlarini rivojlantirish davlat va tashkilotlar o'rtasidagi mustahkam aloqa ko'prigiga bog'liq ekanligi ta'kidlanadi. Bu esa, davlat boshqaruvida davlat xizmati munosabatlarining barqarorligiga olib keladi. Davlat siyosatidagi bunday natijalar boshqaruv samaradorligiga xizmat qilishi bayon etiladi¹⁵. Amerikaning Indiana universiteti tatqiqotchilari James L Perry va Lois Rekaskino Vayslar tomonidan yozilgan "Davlat xizmatining motivatsion asoslari" asarida davlat xizmati davlat siyosati sifatida ko'rsatiladi va insonlarni davlat xizmatiga undash hamda insonlarda davlat xizmatiga motivatsiya uyg'otish metodologiyalari keltiriladi. Buni davlat boshqaruvi sifatida emas, davlat xizmati va davlat siyosati munosabatlari sifatida talqin qilinadi¹⁶.

Metodologiya va tatqiqot usuli.

Mazkur ilmiy maqolada davlat boshqaruvida oid bir qator konseptual asoslar ko'rsatib o'tiladi.

1970-yillardan boshlab, davlat boshqaruvi sohasiga qiziqish ortdi. 1990-yillarga kelib esa, mazkur sohaning progressiv rivojlanishi tufayli davlat boshqaruvini isloh qilish boshlandi¹⁷.

Hindistonning Kalikut universitetida chop etilgan "Davlat boshqaruvining konsepsiyalari va nazariyalari" ilmiy tatqiqot ishida davlat boshqaruvida nisbatan 2 ta yondashuv borligi qayd etiladi. A) An'anaviy yondashuv va B) Zamonaviy yondashuv hisoblanib, an'anaviy yondashuvga: falsafiy, tarixiy va qiyosiy yondashuvlar, zamonaviy yondashuvga: marksistik, ekologik (muhit), xulq-atvor va taraqqiyot yondashuvlari kirishi bayon etiladi. Falsafiy yondashuvga ko'ra, davlat boshqaruvi negizida jamiyat va davlat o'rtasida umummilliy qadriyatlar va an'analar turishi hamda buning asosi sifatida qadimgi hind madaniyati asoslari "Mahabharat", Platonning "Respublika", Jon Lokkning nazariyalari bilan ifodalanadi. Tarixiy yondashuvda xronologik tahlillar va tarixda ma'muriy boshqaruvi yuqori bo'lgan davlatlarni o'rganish ustuvorlik qiladi. Qiyosiy yondashuvni amerika prezidenti Vudro Vilson tomonidan davlat boshqaruvida qiyosiy usullar samaradorlik mezonini ekanligini ta'kidlaydi. "Sotsializm" g'oyalari asoschisi Karl Marks davlat boshqaruvini hukumat (qo'mitalar) va davlatga tegishli deb hisoblaydi va Veberdan farqli o'laroq byurokratiya tushunchasiga kamroq yondashgan bo'lsada, bu tushuncha boshqaruv negizida bo'lishini ta'kidlaydi. Ekologik (muhit) yondashuvi davlat boshqaruvidagi genetik va biologik imkoniyatlar va ularning ta'siri haqidagi bahs bilan boshlangan hisoblanib, J.M. Gans (1947), Robert.A.Dal (1969), Roskoye Martin (1952), Fred.W. Riggs (1961) kabi olimlar o'rganib chiqishgan. Xulq-atvor yondashuvi XX asrning 50-60-yillarida davlat boshqaruvida mazkur yondashuvning roli ortib ketadi. Bu yondashuv negizida Gerbert Simon va Robert Dallarning ilmiy tatqiqot ishlari yotadi. Qaror qabul qilishda inson

¹⁴ Frederickson H. G. et al. The public administration theory primer. – Routledge, 2018.

¹⁵ Moynihan D. P., Pandey S. K. The role of organizations in fostering public service motivation //Public administration review. – 2007. – T. 67. – №. 1. – C. 40-53.

¹⁶ Perry J. L., Wise L. R. The motivational bases of public service //Public administration review. – 1990. – C. 367-373.

¹⁷ THEORY OF PUBLIC ADMINISTRATION MANAGEMENT – A RETROSPECTIVE VIEW. https://eman-conference.org/wp-content/uploads/2019/12/Fiala_Sovova_THEORY-OF-PUBLIC-ADMINISTRATION-MANAGEMENT-%E2%80%93-A-RETROSPECTIVE-VIEW_pp_141-150.pdf

omilining roli, institutlar va davlat boshqaruvidagi keying xatti-harakatlarni aniqlash bu borada muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Taraqqiyot yondashuvi U.L.Gosvami tomonidan 1955-yilda yaratilgan. Edvard Veidner tomonidan "Harakatga yo'naltirilgan va maqsadga yo'naltirilgan boshqaruv tizimi" sifatida ommalashgan hisoblanib, zamonaviy yondashuv sifatida tendensiya hisoblanadi¹⁸.

Shimoliy Dakota universitetining ma'lumotlariga ko'ra davlat boshqaruvining rivojlanish dinamikasi yoki uning ko'rinish shakllari 3 turga bo'linadi. Ular: klassik davlat boshqaruvi, zamonaviy davlat boshqaruvi va postmodern davlat boshqaruvi hisoblanadi. Mazkur universitet vakili U.L.Uvayt "Davlat boshqaruvi – vakolatli organlar tomonidan davlat siyosati va dasturlarini amalga oshirishga qaratilgan barcha operatsiyalardir." shaklida ifodalaydi. J.M.Piffifner "Insonlar o'z oldiga qo'ygan umumiy maqsadlarini bajarish uchun hukumat tuzadilar va uning ishini amalga oshiradilar." deb hisoblaydi¹⁹.

Norwich universiteti ma'lumotlariga ko'ra davlat boshqaruvi haqidagi fundamental nazariyalar va ularning metodologik ravishda rivojlanishi hamda davlat siyosatiga ta'sir qilishida "Tashkilot nazariyasi" muhimligini ta'kidlaydilar. Unga ko'ra to'rt tashkiliy yondashuv xarakterli hisoblanadi. Klassik, neoklassik, favqulodda vaziyatlar va zamonaviy tizimlar nazariyasidir. Klassik nazariya bu – byurokratiya va nazorat boshqaruviga asoslanuvchi hamda "Mikromenejment" prinsipini qo'llovchi hisoblanib, XX asr davomida ko'pgina davlatlarning boshqaruv tizimida muhim rolga ega bo'lgan. Neoklassik nazariya esa, "Inson munosabatlari nazariyasi" deb ham yuritiladi va "Ta'sir" va "Hamkorlik" tushunchalari buning asosida turadi. Favqulodda vaziyatlar nazariyasi esa, bu davlatning boshqaruvida moslashuvchanlik va kutilyotgan risklarga javob berishi bilan belgilanadi. Raqobat va rivojlanish elementlari ustuvor hisoblanadi. Zamonaviy tizimlar nazariyasida qaror qabul qilishda ma'lumotlarni to'g'ri yig'ish va ularni tizimlararo harakati nazarda tutiladi. Yuqorida qayd etilgan nazariyalar davlat boshqaruvi atrofida davriy kontekstda uyushgan va amalga oshirib kelinmoqdadir²⁰.

1967-yilda AQSHning Filadelfiya shahrida davlat boshqaruvi haqidagi "Siyosat-ma'muriyat" dioxotomiyasidan voz kechish va an'anaviylikni rad etish masalalari yuzasidan konferensiya tashkil etildi. Bu konferensiyada davlat boshqaruvining moslashuvchanligini ta'minlash, ijtimoiy muammolarni hal etish, ijtimoiy tenglik, ma'muriy javobgarlik va davlatning javobgarligi kabi muammolar qo'yildi va bu bo'yicha muzokaralar o'tkazildi. AQSHning Nyu-York shtatida joylashgan Sirakuz universitetida 1960-yillarning oxirida davlat boshqaruvi sohasiga oid bo'lgan ilmiy yangiliklar va ushbu sohani tatqiq etuvchilarning g'oyalarini birlashtiruvchi birinchi Minnoubuk konferensiyasi 1968-yilda boshladi. Bu konferensiya davlat boshqaruvidagi yangi inqilobni yaratdi. Bu konferensiyada besh ustun ustuvor deb tan olindi. Bular: Tegishlilik – bu davlat xizmatlarini rivojlantirish, qadriyatlar, ijtimoiy tenglik, boshqaruv transformatsiyasi va o'zgarishi, mijozlarga yo'naltirilganlikdir. Bu "Yangi davlat boshqaruvi (New Public Administration)" g'oyalarini ifodalashga xizmat qilgan.

¹⁸ Mr. Ramakrishnan.T.K Dr. Raimol Ravi.K, THEORIES AND CONCEPTS OF PUBLIC ADMINISTRATION. - Calicut University P.O, Malappuram, Kerala, India 673 635, 2019.

¹⁹ What is Public Administration? <https://und.edu/blog/what-is-public-administration.html>

²⁰ 6 Elements of Public Administration. <https://online.norwich.edu/online/about/resource-library/6-elements-public-administration>

Buning asosiy ta'mal toshini Sirakuz universiteti professori Duayt Valdo qo'ygan²¹. Yangi davlat boshqaruvining xususiyatlari sifatida davlat institutlarini qayta qurish va davlatning muayyan vakolatlarini xususiy sektorga berish, nomarkazlashtirish, maqsadli mijozlar, jamiyatning irodasini tan olish, ko'p tarmoqli sohalar faoliyatini ta'minlash, davlatning axborot siyosatini to'g'ri yo'lga qo'yish hisoblanadi. Uning tamoyillari sifatida muvofiqlik, qadriyatlar, o'zgarish, iqtisodiyot, ijtimoiy tenglik, oshkoralik hisoblanadi²².

Davlat boshqaruvi nazariyasi nomi	Vakillari	Davri	Mazmuni va mohiyati
Davlat boshqaruvining klassik nazariyasi	Vudro Vilson, Maks Veber, Frederik Taylor	XIX asr oxiri – XX asr boshi	Davlat boshqaruvi tuzilma sifatida tasniflangan. Ilmiy boshqaruv va byurokratik g'oyalar ustuvor bo'lgan.
Insoniy munosabatlar va xulq-atvor nazariyasi	Elton Meyo, Chester Bernard, Gerbert Saymon	XX asr o'rtalari	Ijtimoiy ehtiyojlar va mehnat munosabatlarini tushunish davlat boshqaruvinini samaradorligiga olib keladi. Davlat boshqaruviga xulq-atvor, motivatsiya, inson xatti-harakatlarini kiritish, siyosat markaziga insonni qo'yishga olib keladi.
Yangi davlat boshqaruvi (New Public Administration)	Duayt Valdo, Jorj Frederikson	1960-1970-yillar	Davlat boshqaruvida davlat xizmatlarining kuchli yo'lga qo'yilishi.
Yangi davlat siyosiy boshqaruvi (New Public Management)	Devid Ostborn, Kristofer Hud	1980-1990-yillar	"Homiy-mijoz" modeli hamda raqobat, nomarkazlashtirish va kuchli javobgarlik davlat boshqaruvining asosini tashkil qiladi.
Postmodern va tanqidiy nazariyalar	Yurgan Xabermas, Mishel Fuko	XX asr oxiri XXI asr boshi	Davlat boshqaruvida "status-kvo" dan voz kechish, qadriyat va madaniyatlar uyg'unligi va institutlarning harakati kuchli deb ta'riflanadi.

1-jadval²³.

²¹ The First Minnowbrook Conference: Birth of New Public Administration.

<https://pubadmin.institute/administrative-theory/first-minnowbrook-conference-new-public-administration>

²² New Public Administration. <https://unacademy.com/content/upsc/study-material/public-administration/new-public-administration/>

²³ Theories of Public Administration. <https://repetitio.ai/subjects/political-science/public-administration-and-policy/theories-of-public-administration/>

Yuqoridagi jadvalda davlat boshqaruvining nazariy asoslari ilmiy manbalarda shu tarzda ifodalandi. Bu davlat boshqaruvidagi davriy konteks hisoblanadi.

Yangi davlat boshqaruvining progressiv harakat nuqtalari barcha davlatlarning mazkur g'oyani o'z boshqaruvi va davlat siyosatida qo'llashga undagan bo'lsada, bu nazariyaning amaliyoti borasida Buyuk Britaniyalik tatqiqotchi Mohan Kaulning "Yangi davlat boshqaruvi: hukumatdagi boshqaruv innovatsiyalari" maqolasida davlat boshqaruvining moslashuvchanligida hukumatning roli va xususiy sektorlar bilan sinergetik aloqasi, strategiya va harakatlari hamda davlat iqtisodiy siyosati yoritib beriladi. Bu borada davlat xizmatining ham roli e'tirof etiladi²⁴. Biroq, AQSHning Nyu-Jersey shtatida joylashgan Rutgers universiteti tatqiqotchisi Norma M. Ruccuccining "Eski davlat boshqaruvi yangi davlat boshqaruviga qarshi: davlat boshqaruvi qayerga mos keladi?" maqolasida "Yangi davlat boshqaruvi (New Public Administration)" g'oyalarining davlat boshqaruvida aks etishi "Eski davlat boshqaruvi (Old Public Administration)" g'oyalaridagi dastlabki paradigmal asoslarning transformatsiyasi qanday bo'lishi, byurokratiya, iyerarxiya, majburlov tuzilmalarining qayerda bo'lishi masalalari tahlil qilinadi²⁵. Bu bilan ko'pgina rivojlanayotgan davlatlarda bu g'oyaning qanchalik mos kelishi ifodalandi.

Natijalar.

So'nggi ilmiy tatqiqot natijlari davlat boshqaruvi va uning davlat siyosatida tutgan roli hamda ta'siri borasida murakkab va bir-biriga bog'liq bo'lgan siyosat subyektlarining va vositalarining ham bevosita roli borligini ta'kidlamoqdalar. Davlat boshqaruvining samaradorligi va uning davlat siyosatida tutgan roli hamda davlatning rivojlanishi va taraqqiy etib borishi dunyo amaliyotida bir qator usullar bilan belgilanadi. Bunday usullardan biri bu – xalqaro indekslar va ko'rsatkichlar asosida davlat boshqaruvi va davlat siyosatini muayyan mezonlar asosida belgilash hisoblanadi.

Jahon Bankining rasmiy platformalarida davlat boshqaruvining samaradorligi va davlatlar siyosatining to'g'riligini o'lchovchi bir qator ko'rsatkichlar va indikator parametrlari belgilangan. Xususan, "Hukumat samaradorligi" indeksi yoki "Chandlarning yaxshi boshqaruv" indeksida bir qator rivojlangan davlatlarning boshqaruv tizimini muayyan o'lchov birliklari asosida xususan, turli ko'rsatkichlarda ifodalash, mazkur davlatlardagi boshqaruv imkoniyatlari va davlat siyosatining tizimli va demokratik ekanligini ko'rsatadi.

Hukumat samaradorligi indeksi– davlat xizmatlari sifati, davlat boshqaruvi sifati va uning siyosiy tazyiqlardan mustaqillik darajasi, siyosatni shakllantirish va amalga oshirish sifati hamda hukumatning bunday siyosatga sodiqligining ishonchliligi haqidagi ko'rsatkichlarni qamrab oladi. Mazkur ko'rsatkichlar shkalaning -2,5 dan 2,5 gacha bo'lgan raqamlarda va 100% lik ko'rsatkich ballarida ifodalanadi²⁶.

²⁴ Kaul M. The new public administration: management innovations in government //Public Administration and Development: The International Journal of Management Research and Practice. – 1997. – T. 17. – №. 1. – C. 13-26.

²⁵ Riccucci N. M. The "old" public management versus the "new" public management: Where does public administration fit in? //Public Administration Review. – 2001. – T. 61. – №. 2. – C. 172-175.

²⁶ Government Effectiveness. <https://databank.worldbank.org/metadataglossary/worldwide-governance-indicators/series/GE.EST>

Jahon Bankining “Hukumat samaradorligi” indeksida yuqori o‘ringa ega G‘arb va Sharq davlatlari (2023)²⁷

G‘arb davlatlari	100 ballik(%) ko‘rsatkichda	Sharq davlatlari	100 ballik(%) ko‘rsatkichda	Yil
Shvetsiya	99.6	Singapur	100	2023
Avstraliya	99.6	Malayziya	89.1	2023
Norvegiya	99.5	Saudiya Arabistoni	87.2	2023
Finlandiya	99.5	Xitoy	82.1	2023
AQSH	96.7	Indoneziya	80.1	2023

“Chandler yaxshi boshqaruv” indeksida 7 ustun va 35 ko‘rsatkich bo‘yicha yuqori turuvchi davlatlar (2025)²⁸

Davlat nomi	Shkala bali	Davlat nomi	Shkala bali
Singapur	0.875	Daniya	0.833
Norvegiya	0.830	Finlandiya	0.827

2-jadval

Chandler yaxshi boshqaruv indeksi – 120 dan ortiq davlatlarning “Yetakchilik va prognoz”, “Mustahkam qonun va siyosat”, “Kuchli institutlar”, “Moliyaviy boshqaruv”, “Jozibador bozor”, “Global ta’sir va obro‘”, “Odamlarning ijtimoiy mobilligiga yordam berish” kabi ustunda har biriga 5 tadan 35 ta ko‘rsatkich belgilangan²⁹. Bu orqali davlatlardagi samarador boshqaruv belgilanadi. Yuqorida keltirilgan jadvallarda Skandinaviya davlatlari va Singapur kabi davlatlar yuqori nuqtalarda turibdi. Bu esa, ushbu davlatlardagi boshqaruv siyosatining tizimli va maqsadga yo‘naltirilganligini hamda rivojlanish tendensiyalari yuqori ekanligini ko‘rsatmoqda. (2-jadval)

“Yangi davlat boshqaruvi (New Public Administration)” nazariyasi shaffoflik, tenglik, iqtisodiyot, xususiy sektor, javobgarlik va ishonchlik prinsiplari va ko‘rsatkichlarida yuqori natijalarni qayd etmoqda. Bu esa, davlat boshqaruvidagi infratuzilma va institutsional ko‘rinishlarda ham namoyon bo‘lmoqda³⁰. Biroq mazkur nazariyaning rivojlanishida bir qator siyosiy muammolar mavjud. Resurs cheklovi, byurokratik rasmiyatchilik, o‘zgarishlarga qarshilik, maqsadlarga aniq yo‘naltirilmaganlik, noto‘g‘ri salohiyat va tajriba, muvofiqlashtirish va hamkorlik masalalaridagi muammolardir. Bu siyosiy tahlillar orqali xarajat-foyda tahlili (CBA), SWOT tahlili, ssenariyni rejalashtirish, siyosiy modellashtirish, manfaatdor tomonlarni tahlil qilish, ko‘p mezonli qarorlar tahlili (MCBA) ko‘rib chiqilmoqda. Buning ratsional modeli, bosqichma-bosqich modeli, ishtirok modellari orqali yondashish ham mumkinligi qayd etilmoqda³¹. Zamonaviy davlat boshqaruvi rivojlanish nuqtasida bo‘lgan harakat belgilariga qaramay, uning tanqidiy va ko‘rib chiqilishi kerak bo‘lgan tomonlari ham mavjud.

²⁷ Government Effectiveness: Estimate – World Bank Open Data.

<https://data.worldbank.org/indicator/GE.EST>

²⁸ Chandler Good Government Index. <https://chandlergovernmentindex.com/>

²⁹ Chandler Good Government Index. <https://chandlergovernmentindex.com/>

³⁰ [Kishor Kumar Dash (2024); PUBLIC ADMINISTRATION: A CONCEPTUAL ANALYSIS *Int. J. of Adv. Res.* (Feb). 750-757] (ISSN 2320-5407). www.journalijar.com

³¹ Policy Analysis in Public Administration: Approaches and best practices. <https://snatika.com/single-blog/policy-analysis-in-public-administration%3A-approaches-and-best-practices>

Muhokama.

Davlat boshqaruvining davlat siyosatida tutgan roli borasida "Jamiyat" deb ataluvchi komponentning ham o'rni yuqori ekanligi ba'zi manbalarda ta'kidlanadi. Rivojlangan jamiyatlarda davlat boshqaruvi rivojlangan bo'lishi ta'kidlanadi³². Bu esa davlat siyosatida ham muhim rol o'ynaydi.

Davlat boshqaruvida davlat siyosatining barqarorligi va uning ishonchlilik darajasi o'n elementning ishlashiga bog'liq. Bular: davlat siyosatini shakllantirish va uning harakatini ta'minlash, davlat xizmatlarini samarali yo'lga qo'yish, davlat boshqaruvining samaradorligini oshirib borish, iqtisodni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy farovonlikni ta'minlash, favqulodda vaziyatlarga tayyor turish, qonun va tartibni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, demokratiyani mustahkamlash hamda texnologiyalar va innovatsiyalarni rag'batlantirish elementlari hisoblanadi³³.

Buyuk Britaniyaning York universiteti ma'lumotlariga ko'ra davlat boshqaruvi bir nechta sohalarini o'z ichiga oladi. Ushbu sohalar: huquqni muhofaza qilish, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy yordam, hukumatning barcha darajalari, biznes boshqaruvi, jamoat xavfsizligi, ijtimoiy siyosat, jamiyatni rivojlantirish, inqirozni boshqarish, barqarorlik, atrof-muhitni boshqarish kabi sohalar hisoblanadi. Yuqorida qayd etilgan sohalar davlat xizmatini tashkil etishi va davlat boshqaruvida asosiy o'rinlarda turishi bayon etilib, davlat siyosati parametrlari bu sohalar negizida tarkib topadi va moslashishi ta'kidlanadi³⁴. Bular ko'pgina davlatlarda davlat xizmati sifatida bayon etiladi.

Davlat boshqaruvining konseptual asoslarida mazkur soha ilmiy maktablarining roli katta. Amerika, fransuz, nemis va ingliz maktablari davlat boshqaruvining fundamental asoslarini yaratishgan hisoblanadi.

Amerika davlat boshqaruvi maktabi amerika prezidenti Vudro Vilsonning 1887-yilda nashr etilgan "Boshqaruv uslubi" asari asosida shakllandi. Amerikalik olim J. Gudnou davlat boshqaruviga funksiyalarni joriy etish taklifini ilgari surgan ushbu maktab vakili hisoblanadi. Ushbu maktabda "Klassik davlat boshqaruvi maktabi"ning goyalari ustuvor bo'lgan hisoblanadi hamda bu maktab vakillari F.Teylor, D.Muni va L.Gilbertlar iqtisodiyot va biznesni boshqarish asoslarini yaratadilar. Davlat boshqaruvida buning ahamiyatli tomonlarini ko'rsatib o'tgan hisoblanadi. "Amerika insoniy munosabatlar maktabi" vakillari Meri Parker Follet, Avraam Maslou va Elton Meyolar esa, psixologik va mehnat faoliyati uchun boshqaruv motivatsiyasi g'oyalarni taklif qiladilar. Klassik davlat boshqaruvi maktabi va insoniy munosabatlar maktabi amerika davlat boshqaruvi maktablari sifatida davlat boshqaruvida fundamental konsepsiya va metodlarni ishlab chiqishgan hisoblanadi. Germaniya davlat boshqaruvi maktabida esa, Maks Veberning g'oyalari ustuvorlik qiladi. Uning "Iqtisodiyot va jamiyat" (1921) asari davlat boshqaruvidagi muhim mexanizmalarni ifodalaydi. Bu maktab Germaniya va Avstriya davlatlarining boshqaruv tizimida muhim mexanizmlarni ishlab chiqqan hisoblanadi. Nemis olimlari H.Kun, E.Forsthoff va E.Hippellar bu maktabga muhim

³² The Role of Public Administration in Developed and Developing Societies.

<https://pubadmin.institute/perspectives-on-public-administration/role-of-public-administration-in-societies>

³³ 10 Importance of Public Administration you Should Know.

<https://schoolofpoliticalscience.com/importance-of-public-administration/>

³⁴ Public administration: serving the needs of the people. <https://online.york.ac.uk/resources/public-administration-serving-the-needs-of-the-people/>

hissa qo'shgan. Nemis olimi A.Gehlen "Barqarorlik" davlat boshqaruvining asosi ekanligini ta'kidlaydi. Yana bir qator olimlar N.Lyuman va R.Darendorf "Strukturaviy-funksional boshqaruv" nazariyalarini taklif etgan hisoblanadi. Farnsuz davlat boshqaruvi maktabining asoschilari M.Prelo va M.Dyuverjerlardir. Fransuz olimlari L.Duguit, A.Mishel M.Orlou institutsional yondashuvni ilgari suradilar. Yana bir fransuz olimlari P.Avril va E.Forlar davlat boshqaruvini "Nomarkazlashtirish" uning samaradorligini oshirishini ta'kidlaydilar. Fransuz siyosatshunosligining asoschisi A.Esmen esa, konstitutsiyaviy huquqning davlat boshqaruvida ustuvor ekanligini ko'rsatadi. Ingliz davlat boshqaruvi maktabi XIX asr oxirida London iqtisod va siyosatshunoslik maktabida, keyinchalik Buyuk Britaniyaning boshqa universitetlarida rivojlangan hisoblanadi. 1930-yillarda ingliz maktabida "Xulq-atvor" usullari ustuvor hisoblangan. Bu g'oyaning asoschilar ingliz olimlari E.Parker, D.Koul, G.Laski, S.Mening, U.Robson, G.Finer edi. Bu maktab negizida sotsiologiya va iqtisodiy tafakkur maktablari rivojlandi. Ingliz olimi M.Oakeshottning davlat boshqaruvida "Maqsadga asoslangan va fuqarolik" ideal nazariyasi ustuvor bo'lgan. Keyinchalik ingliz olimi S.Bir tomonidan "Tashkiliy-kibernetika" maktabiga asos solingan. Amerika davlat boshqaruvi maktabi bu maktab rivojlanishida muhim hisoblangan³⁵.

Davlat boshqaruvi haqida ko'pgina ilmiy tatqiqot ishlari va ularning amaliyoti amalga oshirilgan bo'lsada, Janubiy Koreya ilmiy manbalarida bu borada haligacha yagona konsensus yo'qligi ta'kidlanadi. Buni korealik olim F.Nigro birinchidan, davlat boshqaruvi chegaralarining aniq emasligi, ikkinchidan, uning mazmuni va funksiyalarining dinamikligi bilan ifodalaydi. Yana boshqa sabab sifatida, so'nggi yillardagi bu boradagi bilimlar va ilmiy tatqiqotlarning ko'payishi, bu sohada yangi ilmiy nazariyalarni ishlab chiqarishni taqazo etmoqda. Yana bir koreyalik olim G.E.Kayden davlat boshqaruvining yetti xususiyatini ko'rsatib beradi:

- 1) Davlat boshqaruvi inson va jamiyatni bog'lab turadi.
 - 2) Davlat boshqaruvi majburlovchi kuchga ega.
 - 3) Davlat boshqaruvi tartibga soluvchi va jamiyat manfaatlariga xizmat qiluvchidir.
 - 4) Davlat xizmatlari davlat boshqaruvi asosida yo'lga qo'yiladi.
 - 5) Davlat boshqaruvi siyosiy partiya va siyosiy yetakchilar tomonidan o'rnatilgan mafkura va qadriyatlarni jamiyat qadriyat va mafkuralari bilan uyg'unlashtiradi.
 - 6) Davlat boshqaruvining baholanishi murakkab hodisa sifatida talqin etiladi.
 - 7) Davlat boshqaruvi adolatli bo'lishi jamiyat umummiy manfaatlariga bilan belgilanadi.³⁶.
- Biroq, bu yuqorida keltirilgan barcha ilmiy ma'lumotlar hozirda o'zaro mutanosib hamda bir-biriga nisbatan tanqidiy hisoblanadi.

Xulosa.

Demak, davlat boshqaruvidagi mazkur konseptual g'oyalar va nazariyalar har bir suveren davlatning siyosiy tizimiga, siyosiy rejimiga, boshqaruv shakliga, davlat boshqaruvi tuzilishiga, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy imkoniyatlariga bog'liqdir. Davlat boshqaruvining konseptual asoslari davlat siyosati portreti uchun fundamental asos hisoblanadi. Davlat siyosati va davlat xizmati har bir davlat uchun boshqaruv munosabatlarida qaror topadi. Davlat boshqaruvi hamda davlat siyosatiga nisbatan tarixiy, falsafiy, huquqiy, psixologik hamda

³⁵ Концепции государственного управления. <https://studfile.net/preview/5250437/page:9/>

³⁶ 한국외대 [현대사회와 행정] 행정의 개념

<http://contents.kocw.or.kr/document/lec/2012/Hufs/KimHyungRak/01.pdf>

kibernetik yondashuvlar va nazariyalar mavjud bo'lsada, biroq, siyosatshunoslik nuqtai nazaridan tahliliy va tizimli ifodalash, mazkur tushunchalarning strategik va sof asoslarini bayon qilishga xizmat qiladi. Yuqoridagi fan tarmoqlari uchun umumiy hisoblangan tatqiqot usullaridan farqli ravishda, siyosatshunoslik o'zining sof tatqiqot usuli hisoblangan qiyosiy tahlil va uning kontekstualizatsiyasi, davlat boshqaruvining konseptual asoslari dialektikasini yaratadi. Davlat boshqaruvi sohasi dolzarb va progressiv xarakterga ega hisoblanib, davlat siyosatidagi strategik to'g'ri qaror qabul qilish, uni ishlab chiqish hamda siyosiy jarayonlarda uning samaradorlik xususiyatlari albatta, davlat boshqaruvi texnologiyalari va usullariga bog'liqdir. Bu sohani va jarayonni ta'minlash siyosiy tizim elementlari yohud soha paradigmalarning transformatsiyasi va modernizatsiyasining to'g'ri dinamikasi ta'minlaydi. Davlat boshqaruvi va davlat siyosati bu asrlar davomida tarixiy tajriba va amaliyot sifatida va ko'rinishida rivojlanib kelgan. Insoniyat taraqqiyoti davlat boshqaruvi haqidagi nazariyalarni va konsepsiyalarni progressiv shaklda rivojlanishiga turtki bermoqda. Bu esa, mazkur sohaning istiqboldagi rivojlanuvchan tabiatini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1) Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013. – P.58-96.
- 2) Қирғизбоев, Муқимжон. Сийосатшунослик: олий ўқув юртлари талабалари учун дарслик / М.Қирғизбоев; Ўзбекистон журналистика ва оммавий коммуникациялар университети. - Тошкент: "Шарқ", 2024. - 146 б.
- 3) Rahmanov Abdulvoris Qutfiddin O'g'li BOSHQARUV NAZARIYASINING IJTIMOIIY NAZARIY ASOSLARI // EJTI. 2024. №1-3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/boshqaruv-nazariyasining-ijtimoiynazariy-asoslari> (дата обращения: 31.10.2025).
- 4) What is Public Administration? <https://www.spia.pitt.edu/insider-insights/what-public-administration>
- 5) F.Qarshiboyev, Ikromov Musojon DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARI VA XIZMATCHILARI // YO'PA. 2025. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/davlat-boshqaruv-organlari-va-xizmatchilari> (дата обращения: 31.10.2025).
- 6) Djurayev N. DAVLAT BOSHQARUVI TUSHUNCHASI, UNING IJTIMOIIY-SIYOSIIY MOHIYATI // Академические исследования в современной науке. – 2024. – Т. 3. – №. 52. – С. 72-80.
- 7) What is public policy? Definition, scope, features, types &more. <https://jgu.edu.in/blog/2023/12/30/what-is-public-policy/>
- 8) Pierre J., Peters B. G. Governance, politics and the state. – Bloomsbury Publishing, 2020.
- 9) Farmer D. J. Public administration in perspective: Theory and practice through multiple lenses. – Routledge, 2015.
- 10) Rhodes R. A. W. Understanding governance: Policy networks, governance, reflexivity and accountability. – Open University, 1997.
- 11) Howlett M. et al. Studying public policy: Policy cycles and policy subsystems. – Oxford: Oxford university press, 2009. – Т. 3.
- 12) Stoker G. Governance as theory: five propositions // International social science journal. – 1998. – Т. 50. – №. 155. – С. 17-28.
- 13) Shafritz J. M. et al. Introducing public administration. – Routledge, 2022.
- 14) Frederickson H. G. et al. The public administration theory primer. – Routledge, 2018.

- 15) Moynihan D. P., Pandey S. K. The role of organizations in fostering public service motivation //Public administration review. – 2007. – T. 67. – №. 1. – C. 40-53.
- 16) Perry J. L., Wise L. R. The motivational bases of public service //Public administration review. – 1990. – C. 367-373.
- 17) THEORY OF PUBLIC ADMINISTRATION MANAGEMENT – A RETROSPECTIVE VIEW. https://eman-conference.org/wp-content/uploads/2019/12/Fiala_Sovova_THEORY-OF-PUBLIC-ADMINISTRATION-MANAGEMENT-%E2%80%93-A-RETROSPECTIVE-VIEW_pp_141-150.pdf
- 18) Mr. Ramakrishnan.T.K Dr. Raimol Ravi.K, THEORIES AND CONCEPTS OF PUBLIC ADMINISTRATION. - Calicut University P.O, Malappuram, Kerala, India 673 635, 2019.
- 19) What is Public Administration? <https://und.edu/blog/what-is-public-administration.html>
- 20) 6 Elements of Public Administration. <https://online.norwich.edu/online/about/resource-library/6-elements-public-administration>
- 21) The First Minnowbrook Conference: Birth of New Public Administration. <https://pubadmin.institute/administrative-theory/first-minnowbrook-conference-new-public-administration>
- 22) New Public Administration. <https://unacademy.com/content/upsc/study-material/public-administration/new-public-administration/>
- 23) Theories of Public Administration. <https://repetitio.ai/subjects/political-science/public-administration-and-policy/theories-of-public-administration/>
- 24) Kaul M. The new public administration: management innovations in government //Public Administration and Development: The International Journal of Management Research and Practice. – 1997. – T. 17. – №. 1. – C. 13-26.
- 25) Riccucci N. M. The "old" public management versus the "new" public management: Where does public administration fit in? //Public Administration Review. – 2001. – T. 61. – №. 2. – C. 172-175.
- 26) Government Effectiveness. <https://databank.worldbank.org/metadataglossary/worldwide-governance-indicators/series/GE.EST>
- 27) Government Effectiveness: Estimate – World Bank Open Data. <https://data.worldbank.org/indicator/GE.EST>
- 28) Chandler Good Government Index. <https://chandlergovernmentindex.com/>
- 29) Chandler Good Government Index. <https://chandlergovernmentindex.com/>
- 30) [Kishor Kumar Dash (2024); PUBLIC ADMINISTRATION: A CONCEPTUAL ANALYSIS Int. J. of Adv. Res. (Feb). 750-757] (ISSN 2320-5407). www.journalijar.com
- 31) Policy Analysis in Public Administration: Approaches and best practices. <https://snatika.com/single-blog/policy-analysis-in-public-administration%3A-approaches-and-best-practices>
- 32) The Role of Public Administration in Developed and Developing Societies. <https://pubadmin.institute/perspectives-on-public-administration/role-of-public-administration-in-societies>
- 33) 10 Importance of Public Administration you Should Know. <https://schoolofpoliticalscience.com/importance-of-public-administration/>
- 34) Public administration: serving the needs of the people.

<https://online.york.ac.uk/resources/public-administration-serving-the-needs-of-the-people/>
35) Концепции государственного управления.

<https://studfile.net/preview/5250437/page:9/>

36) 한국외대 [현대사회와 행정] 행정의 개념

<http://contents.kocw.or.kr/document/lec/2012/Hufs/KimHyungRak/01.pdf>



INNOVATIVE
ACADEMY